**Buxoro davlat universiteti**
**o'quv-metodik kengash 8-sonli**
**yig'ilishining bayonnomasidan**

**K O' CH I R M A**

**30.03.2022** **Buxoro shahri**

**K U N T A R T I B I:**

**1. Turli masalalar.**

Pedagogika kafedrasi katta o'qituvchisi L.S. Eliboyevaning 5110900-Pedagogika va psixologiya ta'lim yo'nalishlari uchun "Pedagogik mahorat" deb nomlangan metodik qo`llanmani tavsiya etish.

**E SH I T I L D I:**

**M.Y. Farmanova (kengash kotibasi) -** Pedagogika kafedrasi katta o'qituvchisi L.S. Eliboyevaning 5110900-Pedagogika va psixologiya ta'lim yo'nalishlari uchun "Pedagogik mahorat" deb nomlangan metodik qo`llanmani nashrga tavsiya etishni ma'lum qildi. Ushbu metodik qo'llanmaga: BMTI, Pedagogika fanlari nomzodi, professor M.M. Axmedjonov va Pedagogika fanlari nomzodi, dotsent B.Q. Xodjayevlar tomonidan ijobiy taqriz berilgani ta'kidlandi. Metodik qo`llanma muhokamasi haqidagi Pedagogika fakulteti (2021-yil 28-dekabr) va Pedagogika kafedrasi (2021-yil 24-dekabr) yig'ilish qarori bilan tanishtirdi.

Yuqoridagilarni inobatga olib o'quv-metodik kengash

**Q A R O R Q I L A D I:**

**1.** Pedagogika kafedrasi katta o`qituvchisi L.S. Eliboyevaning 5110900-Pedagogika va psixologiya ta'lim yo'nalishlari uchun "Pedagogik mahorat" deb nomlangan metodik qo'llanma nashrga tavsiya etilsin.

**O'quv-metodik kengash raisi** **R.G'. Jumayev**

**O'quv-metodik kengash kotibasi** **M.Y. Farmanova**

L.S.ELIBAYEVA

# PEDAGOGIK MAHORAT

USLUBIY KO'RSATMA

Ushbu uslubiy ko`rsatma 5110900 – Pedagogika va psixologiya bakalavriat ta`limy yo`nalishi talabalari uchun mo`ljallangan bo`lib unda mavzularning nazariy asoslarini mukammal o`rganish, tahlil qilish, qiyosiy taqqoslashga mo`ljallangan vazifalar, ayrim jihatlarini chuqur egallashga qaratilgan topshiriqlar, olgan bilimlarni amalda tatbiq etish yo`l-yo`riqlari tahlil etilgan.

Tuzuvchilar: L.S.Elibayeva

Taqrizchilar:
M.M.Axmatjanov: Pedagogika fanlari nomzodi, professor
B.Q.Xodjaev: Pedagogika fanlari nomzodi, dotsent

BuxDU pedagogika kafedrasining 2021 yil 24- dekabrdagi №17- sonli yig`ilish bayonnomasi hamda BuxDU O`quv-metodik Kengashining 2022 yil 30- martdagi №8 sonli yig`ilish bayonnomasi asosida tasdiqlanib, nashrga tavsiya etilgan.



## Kirish.

Ta'lim samaradorligini oshirish, davlat ta'lim standartlarining bajarilish sifatini ta'minlash, hozirda pedagogikaning oldida turgan muhim vazifalardan biri hisoblanadi. «Ta'lim to'g'risida»gi Qqonunni amalga oshirish jarayoni sifat bosqichga kirdi.

YAngi o'quv dasturlari, o'quv rejalari, yangi avlod mashg`ulotliklari, ta'lim standartlariga muvofiq holda ta'lim muassasalariga taqdim etildi. Ta'lim oldida turgan vazifalarni hal etish bevosita o'qituvchi faoliyatiga bog'liqdir.

O'qituvchi o'quvchilarni bilim egallashda faollashtiradigan, barcha uchun qulay bo'lgan yo'llarni, usul va uslublarni, ta'limning turli xil vositalarini va vaziyatlarini izlaydi. Ulardan foydalangan holda pedagogik jarayonining samaradorligini oshiradi. Talabalarni mustaqil fikrlashga o'rgatib, ijodiy izlanishga, egallayotgan kasbining sirlarini bilib olishga yo'naltiradi.

Universitetda talabalar mustaqil ishlarini tashkil etish, nazorat qilish va baholash tartibi to'g'risidagi Nizom qabul qilingan. Mazkur Nizomga muvofiq kadrlar sifatini nazorat qilishda talabalarning mustaqil ishlarini tashkil etish, nazorat qilish va baholash tartibini belgilaydi. Talaba mustaqil ishining asosiy maqsadi-o'qituvchining rahbarligida va nazorati ostida talabada muayyan o'quv materiallarini mustaqil ravishda bajarish uchun zarur bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantirish va rivojlantirishdir.

Ushbu to'plamda pedagogik mahorat fanidan o'tiladigan mavzular bo'yicha mustaqil ish topshiriqlari berilgan. Talaba har bir mavzu bo'yicha yangi bilimlarni mustaqil tarzda puxta o'zlashtirish ko'nikmalariga ega bo'lishi, kerakli ma'lumotlarni izlab topishning qulay usullari va vositalarini aniqlashi, Respublikaning mashhur o'qituvchilari, Buxoro viloyati ilg'or xalq ta'limi xodimlari hamda universitetda faoliyat yuritgan ustoz-murabbiylarning tajribalari va mahorat xususiyatlarini o'rganish, o'zlashtirish yo'l-yo'rqlari ko'rsatilgan, axborot manbalaridan unumli foydalanishi, an'anaviy o'quv va ilmiy adabiyotlar, me'yoriy hujjatlar bilan ishlashi, internet tarmog'idan maqsadli foydalanishi va berilgan topshiriqlarning echimini belgilashi, topshiriqlarni bajarishda tizimli va ijodiy yondoshishlari zarur.

Qo'llanmada mavzularning nazariy asoslarini mukammal o'rganish, tahlil qilish, qiyosiy taqqoslashga mo'ljallangan vazifalar, ayrim jihatlarini chuqur egallashga qaratilgan topshiriqlar, olgan bilimlarni amalda tatbiq etish yo'l-yo'riqlari ishlangan.